Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, qadimgi odamlar, dastlab o'z muhofazasi va maishiy ehtiyoji natijasida inson ovozidan kuchliroq tovush beradigan ochiq havoda chalinadigan cholg'ularni ixtiro qilganlar. Uni ovda, boshqa qabilalarga xabar-darak (signal) berishda, harbiy yurishlarda, to'y, sayil, bayram va boshqa yiginlarda qo'llash odat tusiga kirgan. Xorazmshoxlar davrida surnay sadosi qo'shinlarni jangga kirish oldidan raqiblarni yengib, g'alaba kuyi sifatida chalinib, lashkarlar madhiyasi bo'lgan ekan. Xorazm raqs ijrochiligida ham surnay kuyiga ijro qilingan raqslar kim tomonidan o'ynalmasin, jangovarlik holatida mag'rur, shiddat bilan o'ynalib g'alabaga erishish uchun faqat yengish maqsadidagi turli jangavor xarakatlarni ifodalashni ko'rishimiz mumkin.

Bu o'yinda raqqos qo'llarini yuqori ko'tarib barmoqlarini asta-sekin musiqa muqomlariga soladi. O'zi esa go'yo raqibiga qaraganday qarab, gavdasini qimirlatmay tutib turadi. Bir necha takt o'tgach qo'l uchi harakatiga gavda harakatini qo'shadi. Keyin birdan dushmanga tashlanishga o'zini safarbar qilgan jangchiday mayda qadamlar bilan yugurib qo'l barmoklarini o'ynatib, charsillatib, qars urishni tezlalashtirib, lashkarlarning harakatini ifodalaydi. O'yin oxirida esa raqqos jang qilayotgan holatini jang va kurashni, raqibi ustidan qozonilgan g'alabani harakatlarda ifodalab beradi. Surnay inson dunyoga kelganda ham, to'y-u tomoshalarda ham

¹ Raxmonov M. O'zbek teatri. Toshkent., 1976., B.- 52-53.,

² Tolstov S.P.. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. T.1964.B.-105.

chalingan. Jangga ketayotgan askarlarning ruhini ko‘tarish, qo‘rquv hissini tarqatish uchun ham surnayda xilma-xil jangovar kuylar ijro etilgan, lashkarlar o‘yinga tushganlar. Surnay qulay asbob bo‘lgani uchun saflarda surnaychilarni olib yurishgan.

Davr o‘tishi bilan “Surnay Lazgisi” harbiy marosimlardagina emas, maishiy turmush bilan bog‘liq turli tadbirlarda, xalq bayram va sayllarida, xatna to‘yi, beshik to‘ylarida va ommaviy konsertlarda ham ijro etilmoqda. Qadimda “Surnay Lazgisi”ni, asosan, erkaklar ijro etgan bo‘lsalar, keyinchalik ommaviy raqs sifatida shakllangan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan Sharif To‘g‘onov, Davlat surnaychi, Otamurod surnaychi, Qodir surnaychi, Quronboy Bobojonov, Qodir Bobojonovlar uning mohir ijrochilari bo‘lishgan. Ayniqsa, mashhur raqqos Zarif Latipov bilan gurlanlik Razzoq otaning, buyuk san‘atkor Komiljon Otaniyozov bilan xazorasplik Abdulla raisning “Surnay Lazgisi”ni ko‘pchilik hamon zavq bilan eslaydi.

Surnay qadimiy cholg‘u asboblaridan biri ekanligi hamda to‘qqiz “Lazgi”ning to‘rtinchisi, aynan, uning nomi bilan atalishi bois ham bu cholg‘u haqida ba‘zi ma‘lumotlarni keltiraylik: “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilishicha, Surnay – (f. to‘yda chalinadigan nay, sibizg‘a) - teshiklarini barmoqlar bilan ochib-yopib, puflab chalinadigan musiqa asbobi³.

Surnay – o‘zbek va tojik xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan qadimiy puflama yog‘och cholg‘u asbob. Surnay yolg‘iz, shuningdek nog‘ora, karnaylar bilan birgalikda ham chalinadi. Surnayda chap va o‘ng qo‘l barmoqlari bilan yopiladigan oltita teshikcha bor. Yettinchi teshik esa, pastki tomonda bo‘lib, u chap qo‘lning bosh barmog‘i bilan berkitiladi. Surnay navosi o‘ziga xos yoqimli va zavq bilan tinglanadi.

Xorazm surnayining tovushi keskin va chiyildoq. Surnayda tovush hosil qilish murakkab bo‘lib, sozandaning uzluksiz nafas olish jarayoniga asoslanadi. Mazkur ijro turiga Xorazmda “dam aylantirish” deyiladi. Bunda ijrochi lunjini shishirgan holda zahira havoni og‘zida saqlaydi va burundan nafas olayotgan paytida zahiradagi havoni chakka mushaklari yordamida surnay naychasiga puflaydi. Natijada surnayga havo yuborilishida tovush uzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Surnay karnay, nog‘ora yoki doira jo‘rligida ommaviylashgan maxsus ansamblni tashkil qilib, milliy an‘anaviy tomoshalarda, dorboz, qo‘g‘irchoqboz o‘yinlarida, turli marosim, yig‘in va sayillarda, milliy raqslarda (“Ufarlar”, “Qum pishiq”, “To‘rg‘ay”, “Zuvoniy”, “Rotollo”, “Orazibon”, “Norim-norim”, “Yelpasalandi” va ayniqsa, “Surnay Lazgisi”) keng qo‘llaniladi. Surnay yakkanavoz cholg‘u sifatida ham mashhur. Ijro imkoniyatlarining boyligi va o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi tufayli unda chalinadigan kuylar alohida ajralib turadi. Xorazmda surnay uchun maxsus “Surnay maqomlari” mavjud bo‘lib, ular mashhur “Tanbur chizig‘i” da o‘z aksini topgan.

³“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” Toshkent-1982-y I tom

“Surnay Lazgisi”, odatda, ikki kishi bo‘lib ijro etiladi. Ba’zi hollarda ko‘pchilik o‘ynashi ham mumkin. Lekin harakatlar bir – birini takrorlamasligi, o‘zgacha zavq va jo‘shqinlikni, kurashchanlikni ifoda etishi shart. Davraning o‘ng tarafidan bir raqqos, chap tarafidan ikkinchi raqqos o‘rtaga chiqadi. Raqqoslar “men uni yengaman” degan imo bilan o‘z ixlosmandlariga qarab, kayfiyatni ko‘taradigan harakatlar qilishadi. Ular musobaqa jangiga chiqqan polvonlardek bellarini bog‘lab, raqs harakatlari bilan bilaklaridagi kuchlarini ko‘rsatib, yenglarini shimarib, o‘zlarini kurashga tayyor ekanliklarini bildiradilar. Yuqorida aytib o‘tilganidek, gavda harakatlari bilan “kurash” jarayoni metaforik tarzda adresatga yetkaziladi.

“Surnay Lazgisi” raqsini ilk davrlarda erkaklar qatorida ayollar ham ijro etgan. Keyinchalik u faqat erkaklar raqsi sifatida shakllangan va saqlanib qolgan. Bu tarixiy raqsning ikki kishilik va guruh variantlari mavjud.

“Surnay Lazgisi” o‘zbek yigitlarining mardona xarakterini, ularning hayotga, g‘alabaga, yaratuvchanlikka muhabbat hissini, intiluvchanligini ifodalaydi. Raqsning milliy-ma’rifiy xarakteridan kelib chiqib, asosan, maydonlarda, katta davralarda raqqoslar tomonidan ijro etiladi. Tomashagini zavqlantirish bilan birga ruhlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan bu raqs ijro etilganda tomoshabinlar ham qiyqiriqlar va raqqoslarga hamohang harakatlar, mimikalar bilan ularni olqishlab turishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avdeeva L. O'zbek raqsi san'ati tarixidan. Toshkent 2001.
2. Qobilniyozov J. Xorazm xalq qo‘shiqlari va o‘yinlari. T., 1975.
3. Matyoqubova G. “Ofatijon Lazgi”. Toshkent, 1993..
4. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi ,T., 2001 9-j.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-j. I T.1982.
6. Sh. Jalilova O‘zbek raqsini o‘qitish uslubiyoti. O‘quv qo‘llanma.-T.2020.

PRAGMATIC ASPECT AS THE MOST IMPORTANT COMPONENT OF THE ADEQUACY OF SIMULTANEOUS INTERPRETATION

(PhD) Associate Professor
Ruziyeva G.Kh. of "Philology Faculty"
in "Alfraganus University"

ABSTRACT

This paper considers aspects of academic knowledge about the importance of pragmatics for the adequacy of simultaneous interpretation. By doing so, it analyses how these perceptions may represent the challenge in improving the research quality among young interpreters. Drawing on a survey of young translators, this study argues that the obstacles are not just pragmatic-related but also cognitive and culture-related. This study uses a Critical Analysis, and cultural analysis to identify meanings.

Keywords: *pragmatic aspects, analysis, code, linguistics, system, words, syntactic, stylistic, lexical.*

One of the unique features of simultaneous interpretation is its practicality, which is very difficult for interpreters to achieve since the time between the original speech and the interpreted speech is only three or four seconds. This means that the speaker speaks without stopping and at the same time the interpreter has to translate the words at the same time. In this arduous process, the translator's memory, rich vocabulary, and broad worldview are crucial for completing this arduous task. Despite the difficulties mentioned above, more than 90% of international conferences are held with the participation of simultaneous interpreters. In addition, simultaneous translation has a lot of scientific and unique features. Therefore, it requires very high requirements from future translators, because it is widely used in official conferences, and translators are not allowed to make even a small mistake. The main requirements for interpreters are as follows: when the original speech is spoken, the simultaneous interpreter must listen very carefully and distinguish every detail. The pragmatic aspect plays an important role in the translation of works of art because together with other components of the translation, this aspect largely determines the adequacy of the translation itself.

There are different ways and conditions for the emergence of pragmatic meaning. For example, a mother welcomes the children back from school saying "The TV is out of order." She says the same phrase to her husband when he returns from work. In both cases, the semantics of the sentence remain the same, but the pragmatic meanings are different. In the first case, the woman meant the following: "You don't watch TV, you prepare a lesson", in the second - "the TV needs to be repaired."

However, the pragmatic purpose of the character does not correspond to the pragmatic intention of the author, which creates a certain difficulty for the translator.

Pragmatics studies how the speech of human activity manifested in various systems is interpreted as a single unit of these elements as a microsystem. So, all the elements loaded with love depend on the pragmatic sphere with the inner feeling of the speech unit and indicate the attitude of the person to the target.

V. Dresses, "Pragmatics is not related to linguistics. It is wrong to mix them." Most linguists would probably disagree, but countless scholars have done pragmatic research. Most of them consider pragmatics to be linguistic, a specific school of language, and a separate aspect of speech and language learning.

Scholars who interpret pragmatism as a branch of linguistics still cannot give clear answers to simple questions:

- "What is pragmatics?"
- What is the source of learning it?
- What aspects of multilingual speech will he learn?

Accordingly, pragmatics is somewhat new in the field of sociology and semantics. When it comes to the subject of semantics, most of us are not well-formed enough to explain the sociolinguistic and other non-linguistic components that lead to pragmatism. If the connection between speech and text is very strong, pragmatics should be implemented in the context of speech, with the text. If the analysis of descriptive words in the syntactic device is based on semantics, non-descriptive words are analyzed by pragmatics.

In other words, semantics is the literal meaning of an idea, while pragmatics is the implied meaning of a given idea. Thus, the relationship between the subject and the meaning of the subject belongs to pragmatics. Speech is a conceptual concept of linguistic pragmatism, which cannot be separated from such points of view as text and speech situations.

In language, the communicator's mentality and behavior are expressed through communication; it also contributes to the development of culture and society and mutual understanding between people. For example:

- *Little Johnnie (crying): Mummy, mummy, my auntie Jane is dead.*
- *Mother: Nonsense, child! She phoned me 5 minutes ago.*
- *Little Johnnie: But I heard Mrs. Brown say that her neighbors cut her dead.*

To cut somebody dead means 'to rudely ignore somebody; to pretend not to know or recognize him.

In this example, "to cut somebody" means "to rudely ignore someone; It means not knowing or pretending not to know him.

T: It seems to me you need to do a lot of drawing.

S: Yeah.

T: Right. A lot of drawing.

S: Mm.

T: In different ways, story form, exploring color...

All those things. When a tutor says, – It seems to me you need to do a lot of drawing... – he or she expects the student either to justify why he or she hasn't done a lot of drawing or to accede to the implicit exhortation to do a lot of drawing.

In this case, the tutor's use of the phrase - It seems to me you need to do a lot of drawing... - he expects the student to either justify why he did not draw a lot, or to indirectly agree to the advice to draw a lot.

V.N. Komissarov writes: "The people develop a certain attitude to the words they use. Such relationship between the word and its users are called "pragmatic". Any text has a communicative character, and it contains some kind of message containing certain information (information) from the source to the recipient (receptor). Sometimes the received information can have a profound effect on the receptor. This information can affect his feelings, cause a certain emotional reaction, and lead to a certain action.

The ability of the text to create such a communicative effect, that is, to create a pragmatic attitude in the receptor towards the messenger, or in other words, to have a pragmatic effect of the information in the text on the receiver, is called the pragmatic aspect of the text or the pragmatic potential of the text (pragmatics of the text). is called

The pragmatic attitude of the receptor to the text depends not only on the pragmatics of the text, but also on the identity of the receptor, his characteristics, background knowledge, previous experience, mental state, and other characteristics.

At the first stage of the translation process, the translator acts as the Receptor of the original and tries to capture the information contained in the text as fully as possible. For this, he must have the background knowledge that native speakers have, that is, he must be aware of the history, culture, literature, traditions, modern lifestyle, and realities of the people who speak the native language. Like any receptor of the original, the translator has a personal attitude towards the information provided. However, the translator must try to ensure that such a personal attitude does not affect the accuracy of the translation. In this sense, the translator should be pragmatically neutral.

The fact that the receptor of the translation text does not have scientific knowledge makes it necessary to explicate (disclose) the intended information and requires adding the necessary additions and clarifications to the translation text. This process is carried out in the second stage of translation.

Filling is carried out in the following cases:

English provinces such as Massachusetts, Oklahoma, and Virginia in the USA, Alberta, Manitoba or Middlesex, Surrey in Canada, and similar geographical names are usually added to the Uzbek language with words such as "state, province, county" The Uzbek student is given information about what the names mean.

The addition of filler elements may also be necessary to reflect the names of organizations, companies, and publishers.

The strike movement in Spain is on the increase, "Newsweek" reports.

According to "Newsweek" magazine, demonstrations are increasing in Spain.

This practice of filling serves to ensure a correct understanding of the different realities of the way of life and life of speakers of another language:

A house of Long Island - Дом на острове Лонд – Aylend orolidagi uy

I could see not only the five boroughs of the city but much of New Jersey as well.

Men nafaqat shaharning to'rt tumanini, balki Nyu-Jersi shtatining kattagina qismini ko'ra olardim.

In some cases, the necessary additional information can be provided as a separate comment to the translation text.

Borough - this is what districts are called in New York. There are five: Manhattan, Bronx, Brooklyn, Queens, and Richmond (Staten Island).

We took a cab from Union Station to Ramada Inn.

We took a taxi from Union Station to the Ramada Inn.

The cab is a synonym of the word taxi, and the word cabbie can be made from it.

Sometimes I bought a submarine sandwich from a local deli.

Submarine sandwich – hero sandwich.

Deli – delicatessen..

In translation, in some cases, in the process of revealing the pragmatic text of the original, it is possible to leave out some details unknown to the translation receptor.

There were pills and medicine all over the place. And everything smelled like Vicks' Nose drops

Various pills and medicines were scattered everywhere and everything smelled of anti-inflammatory medicine.

Vicks - the name of the drug was omitted in the translation. Because it means nothing to an Uzbek student.

A translator sometimes replaces an element unknown to the source language translation receptor with information that is only intended in the source text. As a result, the implicit information in the original becomes explicit in the translation.

The Prime Minister spoke a few words from a window in Number 10.

As any Englishman knows, 10 Downing Street in London is the Prime Minister's residence. An Uzbek reader may not know this, and it would be appropriate to make a substitution that clarifies this name in the Uzbek translation.

The prime minister made a brief statement from the window of his residence.

Some of them insisted on treating me to a meal. Then I would insist on treating them. After an argument, we would, as a rule, go Dutch.

Ularning ba'zilari meni ziyofat berishimni so'rab turib olishdi. Men esa ularning ziyofat berishlari kerakligiga turib oldim. Anchagina bahslashgandan so'ng odatdagidaek hamma o'ziga to'ladi.

Although the meaning of the phrase "to go Dutch" is understandable for an American, it is incomprehensible for an Uzbek, so it was replaced in the translation.

Often in translation, such replacement has the character of generalization, i.e. replacing a word with a specific meaning with its general meaning, which is understandable to the receiver.

"The temperature was an easy ninety", he said.

"Haddan tashqari issiq", - dedi u.

Ninety in the example is used to mean ninety degrees Fahrenheit. The Fahrenheit system is not very familiar to the Uzbek reader, and it can be transferred to the Celsius system. But the word in the text belongs to the reader in the United States, and the Celsius system is not used in this country at all. The information about the fact that it was very hot in the text is important.

It is also common to turn a common noun into a related noun.

Parked by a solicitor's office opposite the café was a green Aston – Martin tourer.

Kafe qarshisidagi advokatlik idorasi oldida yashil rangli sport mashinasi turar edi .

I could see my mother going into Spauldings ...

Men onamning sport mollari do`koniga kirayotganligini ko`z oldimga keltirdim.

Concretization is also used in translation. In this case, a word with a general meaning is replaced by a word with a narrow and concrete meaning to fully reveal this meaning to the receiver.

The British people are still profoundly divided on the issue of joining Europe.

Ingliz xalqida Angliyaning "Umumiy Bozor"ga qo'shilishi kerakmidi degan masalada katta kelishmovchilik haligshacha mavjud.

In the above examples, the translation was determined not by personal characteristics, but by the cultural-historical characteristics of this nation and background knowledge of English realities.

Pragmatic problems of translation directly depend on the orientation (for whom the translation is made), the genre characteristics of the original, and the type of receptors for which the translation is intended.

Literary translators face considerable difficulties in conveying the pragmatic potential of the original. Translation requires appropriate adjustments to the pragmatic differences between AM and TM to be properly understood by the receiver.

Sociolinguistic factors, such as the use of substandard forms of regional-dialect, social-dialect, and changed speech used by speakers, also play an important role in ensuring pragmatic adequacy.

The elements specific to the regional dialects of the original language in the original text are not included in the translation. On the other hand, dialectal forms can be used in a text (mainly fiction) to indicate the linguistic characteristics of a certain individual character.

According to R.B. Anderson, "Dealing with simultaneous translation is not an easy task" [Anderson, 2001: 4]. In addition, people working in this profession must have certain high qualities and characteristics. Simultaneous interpreters should have the following three characteristics in the interpreter qualification, which are considered the most important.

1) Linguistic ability. It includes pragmatic competence, which in turn is divided into two types:

a) pragmatic-linguistic competence - according to scientists, the translator should know the specific features of certain words and phrases.

b) socio-pragmatic competence. This means recognizing the functional methods and etiquette that occur in simultaneous interpretation, among other things.

2) General understanding. This is a quality that allows translators to build their own specialized vocabulary based on their general knowledge of specific topics. In this case, translators will be able to perform their tasks without any difficulties.

3) Fluent delivery skills. Quality, with which interpreters can convey the interpretation based on their secret strategies.

REFERENCES

1. R.B. Anderson "Pragmatic Assessment" in the late 20th century.
2. Paul Grice: "Logic and Conversation" (1975) and "Studies in the Way of Words" (1989).
3. Herbert H. Clark: "Using Language" (1996) and "Principles of Pragmatics" (1996): Co-authored with Eve V. Clark.

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI
FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI
JORIY ETISH ISTIQBOLLARI**

Atamuratov Bobirmirzo Baxram o'g'li

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniyalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda kuzatuv kengashi faoliyatini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, kuzatuv kengashi, moliyaviy barqarorlik, raqamli texnologiyalar, korporativ boshqaruv.


KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini jadallashtirishning dolzarb masalalaridan biri davlat organlari, kompaniyalar, korxonalar va tashkilotlarga, biznes faoliyatning barcha sohalariga «raqamli iqtisodiyot», zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va ulardan keng foydalanish hisoblanadi. Shu maqsadda, oxirgi yillarda davlat rahbari va hukumatning bir qator qarorlari asosida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar belgilandi hamda uni joriy etish va rivojlantirish sohasidagi vakolatli davlat organi tayinlandi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oxirgi paytlarda kompaniyalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga hamda korporativ boshqaruvni takomillashtirishga yordam beradigan amaliy biznes-dasturlar nafaqat keng foydalanib kelinmoqda, balki amaliy biznes-dasturlardan foydalanish jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan sohalardan biriga aylangan.

Jahon amaliyotida kompaniyalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va korporativ boshqarishda zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanishda uchta asosiy soha ajratiladi: 1) strategik menejment; 2) ichki nazorat tizimini boshqarish; 3) aksiyadorlar (investorlar, manfaatdorlar tomonlar) bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish (shareholder/investor/stakeholder relations management).



1- rasm. Kompaniyalarda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va korporativ boshqarishda zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi sohalar

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Kompaniya strategiyasini amalga oshirish jarayonida direktorlar kengashi (kuzatuv kengashi) ning ijroiya organi bilan hamkorligi, ijroiya organining ichki nazorat tizimini boshqarish bo‘yicha o‘z vazifalarini bajarishlari, kompaniyaning aksiyadorlar va boshka manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorligi masalalarini raqamli texnologiyalar yordamida samarali ta’minlash mumkin. Kompaniya strategiyasini boshqarishda direktorlar kengashi (kuzatuv kengashi) va ijroiya organi a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, hisobot ko‘rinishidagi axborotlar bilan o‘zaro almashinuvlar muhim ahamiyatga ega. Bu yerda kompaniyaning hozirgi holati va faoliyati to‘g‘risidagi ob‘ektiv hamda bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan hisobotlarni shakllantirishni hamda ularni kompaniyaning rahbarlari tomonidan doimiy ravishda olib turishlarini korporativ IT-tizimi ta’minlaydi. Bunday tizimlarga riskni boshqarish tizimi, axborot xavfsizligini ta’minlash tizimi, korporativ konunchilik talablariga rioya qilish tizimlari (kompliens tizimlar) ni kiritish mumkin. Riskni boshqarish IT-tizimlari ko‘pincha innovatsion faoliyati yuqori bo‘lgan kompaniyalarda hamda moliyaviy mussasalarda qo‘llaniladi. Ayniqsa, banklarda riskni boshqarish tizimi korporativ boshqaruvning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Bunday IT-tizimlar kompaniyalarda kreditlarni tahlil qilishga, operatsion risklarni baholashga, kelgusidagi ishlar va xarajatlarni baholashga, riskni boshqarish bo‘yicha hisobotlarni tuzishga, va buning natijasida, menejerlarga yangi va aniq ma’lumotlardan foydalanib, optimal qarorlarni qabul qilishga imkon beradi. Mazkur tizimlardan to‘laqonli foydalanish uchun maxsus korporativ IT- infratuzilmalar yaratilgan.

NATIJARLAR

Axborot xavfsizligini ta'minlovchi IT-tizimlar ham kompaniyalarda ichki nazoratni olib borishda muhim rol o'ynaydi. Ular orqali kompaniyada korporativ ma'lumotlar va axborotlarni hamda tijorat sirlarini maxfiy saqlash, direktorlar kengashi (kuzatuv kengashi) tomonidan axborot xavfsizligini qat'iy nazorat qilish amalga oshiriladi.

Bundan sanoatni rivojlantirish sohasidagi strategiyalar dunyoning turli mintaqalari: Yevropa Ittifoqi, AQSh va Osiyoda, jumladan, Germaniya, Xitoy, Braziliya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Estoniya, Gollandiya, Irlandiya, Shvesiya, Singapur, Filippin, Malayziya kabi mamlakatlarda, shuningdek eng yirik sanoat kompaniyalari tomonidan (masalan, Siemens, General electric, SAP, Intel) ishlab chiqilgan va amalga oshirib kelinmoqda.

1-jadval

Mamlakatlarning raqamli strategiya bo'yicha dasturlari

Mamlakatlar	Strategiyalar	Qabul qilingan yili
Yevropa Ittifoqi	“Raqamli Yevropa 2020”	2010
Germaniya	“Sanoat 4.0”	2011
Xitoy	“Internet plyus”	2015
Rossiya	“Internet kommunikatsiya tarmog'ining Rossiya segmentini va iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarini rivojlantirish strategiyasi”	2015
AQSh	“Raqamli Strategiya 2020-2024”	2018
Singapur	“Milliy sun'iy intellekt strategiyasi”	2018
O'zbekiston	“Raqamli O'zbekiston -2030 strategiyasi”	2020

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi nafaqat iqtisodiyotda, balki jamiyatning o'zida ham tub o'zgarishlarga olib keladi. Shunday qilib, axborot xarajatlarining pasayishi tufayli raqamli texnologiyalar davlat, kompaniyalar va jismoniy shaxslar uchun ijtimoiy va iqtisodiy operatsiyalar narxini sezilarli darajada pasaytiradi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi, bunda tranzaksiya xarajatlar deyarli nolga teng bo'ladi, shuningdek samaradorlikni keskin oshiradi: mavjud faoliyat va xizmatlar arzonroq, tezroq yoki qulayroq bo'lishiga erishiladi. Nihoyat raqamli texnologiyalar integratsiyani osonlashtiradi.

Iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalarining asosiy qismi davlat ishtirokidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelishini va ularning faoliyati bevosita iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir etishini inobatga olib, ularning samarali foydalanishini ko'rsatishini tashkil etishning asosiy omillaridan biri bo'lib to'g'ri va samarali tashkil etilgan boshqaruv tizimi hisoblanadi.

Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish va ularning faoliyatiga korporativ boshqaruvning ilg'or amaliyotini joriy etish borasida hal etilishi lozim bo'lgan masalalar mavjud:

1) Davlat ishtirokidagi korxonalariga egalik qilish mezonlari, davlatning nazorat qilish va mulkdor funksiyalarini ajratish hamda korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublarini joriy etishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli Strategiya mavjud emas.

2) Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (KPI) e'lon qilinmaganligi sababli davlat aktivlarini boshqarish yo'nalishida samaradorlikni baholash tizimi to'laqonli joriy etilmagan.

Ma'lumot uchun: davlat ishtirokidagi 649 ta korxonalar tomonidan ushbu ko'rsatkichlar e'lon qilinmagan.

3) Dividend siyosatini yuritish bo'yicha yagona davlat organi belgilanmaganligi sababli aksiyadorlarning qonun hujjatlari va halqaronormalar bilan mustahkamlab qo'yilgan dividend olishga bo'lgan huquqlari buzilmoqda.

Davlat aktivlarini samarali boshqarish sohasidagi tizimli muammolarni bartaraf etish taklif qilinadi:

- Davlat ishtirokidagi korxonalarini boshqarish va isloh qilish Strategiyasini qabul qilish;

- Davlat ishtirokidagi korxonalarining ijro organi va kuzatuv kengashi a'zolarini moddiy rag'batlantirish mos ravishda samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (SMK) natijalari va korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etilishi darajasini baholashga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladigan tizimni joriy etish;

- Davlat aktivlarini boshqarish agentligini dividend siyosatini yuritish bo'yicha yagona davlat organi etib belgilash;

- davlat ishtirokidagi korxonalarining o'rta va qisqa muddatli strategiyasini to'liq amalga oshirish uchun ijroiya organi vakolatlarini bir yildan uch yilga uzaytirish;

- Ma'lumot uchun: AQSh, Argentina, Avstraliya, Chili, Xitoy, Hindiston, Italiya, Janubiy Koreya va Turkiyada 3 yilgacha, Germaniyada 5 yilgacha, Fransiyada kuzatuv kengashi a'zosi 6 yildan ortiq muddatgacha saylanishi mumkin.

- Kuzatuv kengashi mustaqil a'zolari Uyushmasini tashkil etish;

Ma'lumot uchun: Direktorlar mustaqil a'zolari uyushmasi bir qancha rivojlangan davlatlarda tashkil etilgan, jumladan Rossiyada (2002 yilda) – Mustaqil direktorlar uyushmasi; Qozog'istonda (2007 yilda) – Mustaqil direktorlar uyushmasi; AQShda – Korporativ direktorlar milliy uyushmasi (NACD), Yevropa direktorlar uyushmalari konfederatsiyasi (eCoda), Buyuk Britaniyada – Direktorlar instituti (IoD) kabilar tashkil etilgan.

- Davlat ishtirokidagi korxonalarining kuzatuv kengashi tarkibidagi davlat xodimlari sonini bosqichma-bosqich kamaytirish, ular tarkibigakamida bitta, jumladan

tegishli malaka va ish tajribasiga ega bo'lgan mustaqil a'zo kiritish;

- davlat ishtirokidagi korxonalarining kuzatuv kengashi faoliyatini baholash mexanizmini ishlab chiqish.

- korxonalar boshqaruv organlari yig'ilishlarini videokonferensaloqa orqali o'tkazish va elektron ovoz berish tartibotini joriy qilish;

- davlat ishtirokidagi korxonalarining biznes-rejasiga asosan investitsiya loyihasini amalga oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun tashqi manbaalar hisobidan qarz sifatida pul mablag'lari jalb etilishi ko'zda tutilgan taqdirda, ular tomonidan Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi miqdoridan ortiq dividend to'lashni ta'qiqlash;

- davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirishga homiylik va boshqa beg'araz yordamlar uchun yo'naltiriladigan mablag'larning qonunchilikda belgilangan miqdoridan ortiq qismi davlat ulushi bo'yicha dividendlar sifatida tan olish va biznes-reja ko'rsatkichlarini bajarilishi bo'yicha ularning moliya-xo'jalik faoliyati yakunlarini baholashda inobatga olish.

XULOSA VA MUNOZARA

Raqamli texnologiyalar kompaniyalarga savdo, inventarizatsiya, ishlab chiqarish quvvati va operatsion jarayonlarni yangicha, ya'ni son darajasida tahlil qilishga imkon beradi. Bu esa o'z navbatidagi kompaniya mahsulotlariga, yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan o'zaro munosabatlarga hamda jarayonlarni tashkil etishga nisbatan sifat jihatidan yangi xulosalarga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-son "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF-5953- sonli "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz)
3. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 26.04.1996 y. N 223-I
4. "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2015-yil 24-aprel
5. Gracheva M. Korporativ boshqaruv – axborot texnologiyalarining roli. // "Kompaniya boshqaruvi" jurnali. – Moskva, 2014. - № 10
6. S.Qudratov. Bank tizimida korporativ boshqaruvni takomillashtirish. Toshkent "Akademnashr" 2016 y. 176-bet.
7. S.Qudratov., M.Nazarova. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv. Toshkent. TDIU. 2019 y.

**SHARQ MUTAFAKKIRLARI SABOQLARI ORQALI O'QUVCHILARNING
O'ZBEK XALQ NAQQOSHCHILIGIDA MA'NAViy-AXLOQIY
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

Suyunov Navro'z alisher o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti. O'zbekiston

O'qituvchi.

ANNOTATSIYA

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlariga, shu jumladan uning Maktab va maktab ta'limbosqichiga e'tibor kun sayin ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021-yillarda Maktab va maktab ta'limtizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash muhim vazifa etib belgilandi. Zero, ta'kidlab o'tganimizdek, uzluksiz ta'lim bosqichlarining samarali ishlashi sezilarli darajasida maktab ta'limning sifati bog'liq, bu davrda o'quvchining dunyoqarashi, tasavvurlari rivojlanib boradi va eng muhimi shaxs sifatida shakllanishiga zarur poydevor qo'yiladi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishda naqsh san'atini rivojlantirish yo'llari tadqiq etiladi.

ANNOTATION

Attention to all stages of the system of continuing education in the country, including its pre-school education, is growing day by day. President of the Republic of Uzbekistan Sh. It is important to radically improve the level of preparation of children for school education in the implementation of the Resolution of Mirziyoyev dated December 29, 2016 No PQ-2707 "On measures to further improve the system of preschool education in 2017-2021" defined as a task. As we have already mentioned, the effective functioning of the stages of continuing education depends to a large extent on the quality of preschool education, during which the child's outlook and imagination develop and, most importantly, the necessary foundation is laid for his formation as a person. This master's dissertation explores ways to develop spatial imagination in teaching children visual arts.

АННОТАЦИЯ

С каждым днем возрастает внимание ко всем этапам системы непрерывного образования в стране, в том числе к его дошкольному образованию. Президент Республики Узбекистан Ш. Важно кардинально повысить уровень подготовки детей к школьному обучению в рамках реализации Постановления Мирзиёева от 29 декабря 2016 года № ПП-2707 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы дошкольного образования в 2017-2021 годах», определяемом как задача. В этой магистерской диссертации исследуются способы развития

пространственного воображения при обучении детей изобразительному искусству.

Rasm chizish bolani fikrlashga undaydi, qobiliyatlarini rivojlantiradi, vizual xotirani kuchaytiradi. Albatta, maktab yoshda bo'lgan bolaga rasm chizishni o'rgatish oson emas, lekin u qadar qiyin vazifani ham shunchalik qo'rqinchli va imkonsiz ko'rinmasligi uchun oddiy bosqichlarga bo'lish mumkin.

Maktab va maktab ta'lim muassasasida tasviriy faoliyat bo'yicha ishlarni rejalashtirishda asosiy prinsip, bu tasviriy faoliyatni ta'lim tarbiyaviy ishning eng muhim bo'limlaridan biri sifatida qarash hisoblanadi. Tasviriy faoliyat bo'yicha ishni ma'lum bir vaqtga rejalashtirishda, shu davrda faoliyatning boshqa turlari bo'yicha amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni ham nazarda tutmoq lozim. Tasviriy faoliyat bo'yicha mashg'ulotlarni rejalashtirishda, albatta tasviriy faoliyat mashg'ulotlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ham hisobga olmoq zarurdir. Tasviriy faoliyatning har bir turi o'ziga xos vazifalarni hal etadi, ammo qanday bo'lsa-da, ularni bir yo'nalish, maqsad bo'yicha birlashadilar.

Tasviriy faoliyat turlari — rasm chizish, loy bilan ishlash, applikasiya o'ziga xos tasviriy texnikaga egadir. Tasviriy faoliyat bo'yicha ishni rejalashtirishda o'qituvchi, albatta har bir turdagi mashg'ulotlar soniga qat'iy rioya qilishi lozim. Tasviriy faoliyat bo'yicha mashg'ulotlarni rejalashtirish, yuqoridagilardan tashqari, mashg'ulot qanday materiallar bilan o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'lishini ham o'qituvchi nazarda tutmog'i lozim. Masalan, loy bilan ishlashda — loy yoki plastilin, rasm chizishda — guash, rangli qalam, ko'mir tayoqchasi va hokazo. Shuningdek, o'qituvchi mashg'ulotning dastur mazmunini tanlashda, bolalarga qanday predmetlarni chizdirish haqida emas, balki shu predmetni chizdirish yoki loydan yasattirish orqali qanday bilim va ko'nikma berish yoki o'rgatish haqida ko'proq o'ylashi lozim. Ixtiyoriy mashg'ulotlarni rejalashtirishda esa o'qituvchi bolalarning mustaqilligini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi o'rgatish usullari to'g'risida o'ylab olishi kerakdir.

1. Tasviriy faoliyatga ta'lim-tarbiya ishining muhim bo'lagi, deb qarash ham da rasm chizish, loy bilan ishlash, applikasiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda dasturning barcha bo'limlari o'rtasidagi o'zaro aloqa, bog'lanishni doimo diqqat-e'tiborda tutish lozim. Ya'ni tevarak-atrof bilan tanishtirish, musiqa mashg'ulotlari va hokazo. Bular tasviriy faoliyat uchun qiziqarli hodisalar va voqealarni tanlashga yordam beradi.

2. Tasviriy faoliyatning barcha turlari tevarak-atrof, hayotni obrazlarda tasvirlaydi, ammo har biri o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini hisobga olmoq zarur. Ya'ni rasm chizish — predmet va voqealarni rangda tekis yuzada tasvirlaydi, loy hajmlarda, applikasiya — rangda, siluet ravishda. Shuningdek, har biri o'ziga xos

tasvir texnikasiga ega: rasm chizish chiziqli grafik ravishda, rangtasvir usulida, loy plastik ravishda, girih naqsh kompozitsiyalarini chuqur urganish va tuzish.¹

3. Dasturda tasviriy faoliyat turlari oldiga qo'yilgan vazifalardan biri ularning o'zaro aloqada ekanligidir. Masalan, bolalar rang bilan rasm chizish bilan bir vaqtda, applikasiya bilan ham tanishib boradilar.²

4. Tasviriy faoliyati turlari o'rtasidagi bog'lanish o'qituvchiga rasm chizish, loy, applikasiya bo'yicha vazifalarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, kichik guruhga doiraviy shakllarni o'rgatishda, oldin tayyor doira shakllarini applikasiyada bergan ma'qul, so'ng esa rasm chizish mashg'ulotlarida bergan ma'qul.

5. Tasviriy faoliyat turlari o'rtasidagi bog'lanish ma'lum bir mavzudagi mashg'ulotlar asosida ham bo'lishi mumkin. Masalan, rus xalq ertagi «Bo'g'irsoq»ni bolalar ham chizishi, ham applikasiya, ham loydan yasashi mumkin. Bu turdagi takrorlanish bolalarning mavzuga nisbatan qiziqishlarini pasaytirmaydi, chunki har bir faoliyat turi jarayonida bolalar ertak qahramonlarining xilma-xil tasvirining yangi usul va yo'llari bilan tanishadilar.

6. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini to'g'ri rejalashtirishda, mashg'ulotlar o'rtasida ularning dastur vazifalari, mavzular o'rtasida bog'lanish vujudga keladiki, buning natijasida bolalarning yangi malaka va ko'nikmalarini va bilimlarni egallashlarida ma'lum ketma-ketlik va bog'lanish vujudga keladi. Rangtasvirda ishlash tarixiy usullarini chuqur egallash orqali mashg'ulotning mohiyatini tushunadi.

7. Shuningdek, tasviriy faoliyati bo'yicha ishni rejalashtirishda faqatgina ularning turlari o'rtasidagi ketma-ketlikni nazarda tutmay, balki har bir turdagi mashg'ulotlar o'rtasida ham bog'lanish o'rnatish va ularni diqqatda tutish lozim. Masalan, predmetli rasm chizish loy ishlaridan keyin mazmunli ishlarni rejalashtirish lozim. Tasviriy faoliyat bo'yicha ishni rejalashtirishda o'qituvchi bolalar bilan ishlashda foydalanadigan metod va usullariga ham ahamiyat bermog'imiz lozim. Bular ko'rsatmali va og'zaki metod hisoblanadi. Ko'rsatmali va og'zaki metod o'zaro birgalikda olib borilishi lozim. Demak, o'qituvchi tasviriy faoliyat bo'yicha ishlarni rejalashtirishga juda katta ahamiyat bermog'i lozim ekan. O'qituvchi ishni rejalashtirishga qanday ahamiyat bergan bo'lsa, ishni hisobga olishga ham shunday e'tibor bermog'i lozim bo'ladi. Chunki bu narsa — o'qituvchiga tasviriy faoliyatga o'rgatish bo'yicha dastur vazifalari talablari qanday bajarilganligini aniqlashga va mashg'ulotlarning sifatli chiqishi uchun qanday tayyorgarlik ishlarini ko'proq olib borish lozimligi hamda o'rgatishlarning yangi xilma-xil metod va usullari ustida ko'proq ishlash lozimligini aniqlab olishga va keyinchalik ulardan bolalar bilan ishlashda foydalanish uchun yangi-yangi imkoniyat yaratib beradi.

¹ Alisher o'g, S. N. Z. (2023). GIRIH NAQSH KOMPOZISIYALARI TUZISH. *Journal of new century innovations*, 20(2), 162-166.

² Alisher o'g, S. N. Z. (2022). BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING RANGTASVIR FANI BO'YICHA KASBIY MAHORATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *World scientific research journal*, 2(1), 82-87.

Tasviriy faoliyat bo'yicha bolalar ishini tahlil qilish ikki shaklda olib borilishi mumkin.

1) Matn shaklida: har kungi hisobot va alohida bolalarni kuzatish bo'yicha olib borilgan kuzatishlar matni.

2) Ko'rgazmali: Bolalar ishlarini saqlash, tasviriy faoliyat bo'yicha bolalar ishlarini saqlash o'qituvchiga guruhdagi u yoki bu bolaga tasviriy malaka va ko'nikmalarni egalladimi, yo'qmi, tevarak-atrof go'zalligini, rang va shaklni ko'rishga o'rgandimi, yo'qmi? Shu masalalarni hal etishga yordam beradi. Har bir o'quvchining ishi belgilangan bo'lishi lozim. Bola chizgan yoki yopishtirgan ishining orqa tomonida uning ismi-familiyasi, mashg'ulot o'tkazilgan sanani ham yozish kerak. Bolalarning chizgan ishlarini alohida papkalarga solish yoki ularni albom holiga keltirib qo'yish mumkin. Eng qulayi ishlarni tikib qo'yish, ya'ni hamma mashg'ulotlarni yig'ib, o'rtasidan uzun tasmasimon qog'oz bilan bog'lab qo'yishdir. Bu tasmaning kengligiga, bolalarning yoshi, mashg'ulot nomi, familiyasi, o'qituvchining o'tkazgan sanasi sig'ishi lozim. Shunga qarab, bolalarning loy ishlarini (har bir o'quvchining 3 ta ishi 1 yil saqlanishi lozim) saqlashda ham o'quv yilining boshi, o'rtasi va oxiri bo'yicha ajratish maqsadga muvofiqdir. Bu esa bolalarning malaka va bilimni tahlil qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuni.O'RQ-637-son. // www.lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021-yillarda Maktab va maktab ta'limtizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2707-sonli qarori. // www.lex.uz

3. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi. 7-yanvar 2017-yil.

4. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Maktab va maktab ta'limtizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". 2017-yil 30-sentyabr, №5198 sonli farmoni.// www.lex.uz

**O'ZBEK XALQ NAQQOSHCHILIGIDA NAMOYON KOMPOZITSIYASINI
TURLI USHLARDA BAJARISH ORQALI O'QUVCHILARDA BADIY-
ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDAGI TUTGAN O'RNI**

Suyunov Navro'z Alisher o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti. O'zbekiston

O'qituvchi. suyunov.navruz.n@gmail.com

+998993445143

ANNOTATSIYA

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlariga, shu jumladan uning Maktab va maktab ta'limbosqichiga e'tibor kun sayin ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021-yillarda Maktab va maktab ta'limtizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash muhim vazifa etib belgilandi. Zero, ta'kidlab o'tganimizdek, uzluksiz ta'lim bosqichlarining samarali ishlashi sezilarli darajasida maktab ta'limning sifati bog'liq, bu davrda o'quvchining dunyoqarashi, tasavvurlari rivojlanib boradi va eng muhimi shaxs sifatida shakllanishiga zarur poydevor qo'yiladi.

ANNOTATION

Attention to all stages of the system of continuing education in the country, including its pre-school education, is growing day by day. President of the Republic of Uzbekistan Sh. It is important to radically improve the level of preparation of children for school education in the implementation of the Resolution of Mirziyoyev dated December 29, 2016 No PQ-2707 "On measures to further improve the system of preschool education in 2017-2021" defined as a task. As we have already mentioned, the effective functioning of the stages of continuing education depends to a large extent on the quality of preschool education, during which the child's outlook and imagination develop and, most importantly, the necessary foundation is laid for his formation as a person.

АННОТАЦИЯ

С каждым днем возрастает внимание ко всем этапам системы непрерывного образования в стране, в том числе к его дошкольному образованию. Президент Республики Узбекистан Ш. Важно кардинально повысить уровень подготовки детей к школьному обучению в рамках реализации Постановления Мирзиёева от 29 декабря 2016 года № ПП-2707 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы дошкольного образования в 2017-2021 годах», определяемом как задача. Как мы уже отмечали, эффективное функционирование этапов непрерывного образования во многом зависит от качества дошкольного

образования, в ходе которого развиваются мировоззрение и воображение ребенка и, главное, закладывается необходимая основа для его формирования как личности. человек.

Kalit so'zlar: applikasiya, kreativlik, kompetensiya, san'at tarixi, multimedia, grafika dizayni, milliy naqsh, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya.

Ключевые слова: аппликатсия, бфровые технологии, креативность, компетентность, история искусства, карандаш, мультимедиа, композиция, графический дизайн, национальный орнамент, карандаш, живопись, композиция, мастерство

Keywords: digital technology, creativity, competence, art history, pencil, multimedia, composition, graphic design, National pattern, pencil, painting, composition

